



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI

“MIKROBIOLOGIYA”

SILLABUSI

(MIK2306)

- Bilim sohasi:** 700000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
- Ta'lim sohasi:** 710000 - Muhandislik ishi
- Ta'lim yo'nalishi:** 60710200 - Biotexnologiya (oziq-ovqat, ozuqa, kimyoviy mahsulotlar va qishloq xo'jaligi)

Guliston - 2024

© Ushbu hujjat Guliston davlat universiteti mulki hisoblanadi va uni oluvchilar uchun maxfiy bo'lib, to'liq yoki qisman nusxa ko'chirilishi, tarqatilishi yoki ko'paytirilmasligi yoki uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Ushbu materialni ko'paytirish, tarqatish, nusxalash, oshkor qilish, o'zgartirish, tarqatish yoki nashr etishning har qanday shakli qat'iyan man etiladi.

Kun	
August 2024	Ushbu sillabus Guliston davlat universiteti kengashining 2024-yil " " - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
Tuzuvchi:	D.Turabekova "Oziq-ovqat texnologiyalari" kafedrasi katta o'qituvchisi, b.f.f.d 
Taqribchilar:	A.M. Normatov - TKTI, "Biotexnologiya" kafedrasi mudiri dotsent, t.f.n. N.A. Xo'jamshukurov - TKTI, "Biotexnologiya" kafedrasi professori, biologiya fanlari doktori.

Mundarija

MIK2306: Mikrobiologiya

1. Fan tavsifi
2. Fanning dastlabki rekvizitlari.....
3. Fanning maqsadi.....
4. Ta'lim berish natijalari.....
5. Ta'lim berish usullari.....
6. Soatlar/Kreditlar.....
7. Fanning tarkibiy tuzilishi.....
8. Talabalar bilimini baholash.....
9. Adabiyotlar.....
10. Akademik talablar.....

MIKROBIOLOGIYA

(MIK2306)

1.Fan tavsifi

60720100 - Biotexnologiya ta'lim yo'nalishida tahlil olayotgan talabalarga "Mikrobiologiya" fanining tarixi, rivojlanish bosqichlari kelajagi va istiqbolli rejalaridan kelib chiqqan holda, mikroorganizmlarning tabiatdagi va xalq xo'jaligidagi ahamiyati, morfologiya va fiziologiyasi, modda almashinushi, kimyoviy tarkibi, oziqlanishi va ularga tashqi muhitning ta'sirini, oziq-ovqat hamda ichimliklar mikrobiologiyasi va biotexnologiyasi haqida tushuntirib berish va shu bilan birgalikda patogen mikroorganizmlar keltiradigan oziq-ovqat kasalliklari va ularning kelib chiqishini oldini olish yo'llarini tushuntirishni qamrab oladi.

2.Fanning dastlabki rekvizitlari

Ushbu fanni o'zalshtirish uchun matematika, biologiya, kimyo fanlaridan zarur bilimlarga ega bo'lish talab etiladi.

3.Fanning maqsadi

Dars davomida talabalar mikroguruhlarga bo'lingan holda topshiriqlarni bajaradilar. Laboratoriya va mustakil ishlarni bajarish jarayonida talabalar tadqiqot takliflari va natijalarini auditoriyaga taqdim etadilar.

Ushbu maqsadga erishish uchun bu fan talabalarini nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, mikrobiologik hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

4.Ta'lim berish natijalari

Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

1. Talabalar mikrobiologik bilim asoslari, mikroorganizmlarning tabiatdagi asosiy guruhlari, ulamig morfologiyasi, fiziologiyasi hamda iste'molchilar uchun oziq-ovqat yaxlitligi va xavfsizligini asrashda mutaxassisning roli to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;

2. Talaba mikrobiologik hodisa va jarayonlami tahlil qilish usullarini qo'llash, oziq-ovqat mikrobiologiyasi muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**;

3. Talabalar prokariot va eukariot mikroorganizmlar asosiy guruhlarining morfologiyasi, fiziologiyasi va klassifikatsiyasini **bilishi va** zamonaviy biotexnologik yondashuvlar asosida **ulardan foydalana olishi**.

5.Ta'lim berish usullari

- ma'ruzalar;
- amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;
- interfaol keys-stadilar;
- blits-so'rov;
- guruhlarda ishslash;
- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo'lib ishslash va himoya qilish uchun loyihalar.

6.Soatlar/kreditlar

Ta'lim turi	Ma'ruba Soat	Laboratoriya Soat	Mustaqil ta'lim Soat	Jami Soat/kredit
3-semestr uchun				
Kunduzgi	36	36	108	180/6
Yillik jami	36	36	108	180/6

7. Fanning tarkibiy tuzilishi

Nº	Mavzular	Soat	Ma'ruza mashg'ulotida ko'rildigani mavzular	soat	Laboratoriya mashg'ulot mavzulari	soat	Mustaqil ta'lif va mustaqil ish mavzulari	soat
1	1-mavzu. Kirish. Oziq-ovqat mikrobiologiyasi o'tmishda, hozir va kelajakda	16	"Mikrobiologiya" fanning maqsadi va vazifalari. "Mikrobiologiya" fani va uning rivojlanishi.	2	Mikrobiologiya laboratoriyasida ishlashning umumiyoq qoidalari.	2	Oziq-ovqat mikrobiologiyasida erishilgan yutuq va yangiliklar.	12
2	2-mavzu. Bakteriyalarning shakli, hujayra tuzilishi va harakatlanishi	16	Bakteriyalarning tabiatda tarqalishi. Ularning tashqi ko'rinishi, bakteriya hujayrasining tuzilishi va bakteriyalarning harakatchanligi.	2	Mikroskopning tuzilishi va uni ishlash tartib qoidalari. Mikroskop turlari.	2	Oziq-ovqat kasalliklarini keltiradigan mikroorganizmlar (Salmanellyoz, botulizm, sil, bryusellyoz, tilorang stafilokokk, septik angina, tif, paratif va boshqa kasalliklami qo'zg'atuvcilar)	12
3	3-mavzu. Bakteriyalarning ko'payishi, spora hosil qilishi va sistematikasi	6	Bakteriyalarning ko'payish tezligiga ta'sir qiluvchi omillar, spora hosil bo'lish sabablari va unga ta'sir qiluvchi omillar, sporaning hujayrada joylashishi. Bakteriyalar sistematikasi.	2	Pasterizatsiya va sterilizatsiya usullari. Mikrobiologik tahlil o'tkazish uchun buyum va oziqa muhitlarini tayyorlash va sterilizatsiya qilish.	4		
4	4-mavzu. Ultramikroblarning tuzilishi va xususiyatlari	16	Filtrlanuvchi viruslar. Viruslarning aniqlanishi, tabiatda tarqalishi, ahamiyati	2	Bakteriyalar morfologiyasini o'rganish. Bakteriyalarning fiksatsiya qilingan preparatlarini tayyorlash va ulami oddiy usullar bilan bo'yash.	2	Mikroorganizmlarning tabiatda tarqalishi va ahamiyati.	12
5	5-mavzu. Mog'or zamburug'larning xarakteristikasi. Mog'or zamburug'larning ko'payishi va sistematikasi. Achitqilarning umumiyoq xarakteristikasi. Achitqi hujayralarining shakli va tuzilishi. Achitqilarning sistematikasi.	16	Mog'or zamburug'larning xarakteristikasi. Mog'or zamburug'larning ko'payishi va sistematikasi. Achitqilarning umumiyoq xarakteristikasi. Achitqi hujayralarining shakli va tuzilishi. Achitqilarning sistematikasi.	2	Bakteriyalarni Gram usulida bo'yash.	2	Achitqilarning oziq-ovqat sanoatida tutgan o'rni.	12

6	6-mavzu. Mikroorganizmla rning modda almashinuvni, kimyoviy tarkibi, oziqlanishi va nafas olishi. Mikroorganizm fermentlari.	18	Mikroorganizmlardagi moddalar almashinish jarayoni. Mikroorganizmlarning kimyoviy tarkibi. Mikroorganizmlarning oziqlanishi. Geterotroflar, avtotroflar	2	Mog'or zamburug'lari morfologiyasini o'rghanish.	4	Mikotoksikozlar qo'zg'atuvchilari	12
7	7-mavzu. Mikroorganizmlar ga fizikaviy omillarning ta'siri.	18	Muhit haroratining ta'siri. Psixofil, mezofil va termofil mikroorganizmlar. Muhit namligi va unda erigan moddalar konsentratsiyasining mikroorganizmlarga ta'siri.	2	Achitqilarning morfologiyasini o'rghanish.	4	Antiseptiklarni oziq-ovqat mahsulotlarini konservalashda ishlatilishi.	12
8	8-mavzu. Mikroorganizm larga kimyoviy va biologik omillarning ta'siri.	14	Muhit reaksiyasi (pH) va muhit oksidlanish- tiklanish sharoitlarining ta'siri. Atsidofillar, neytrofillar va alkalofillar. Bu omillardan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va saqlashda foydalanish.	2			Mikroorganizml arning antibiotik xususiyatlari.	12
9	9-mavzu. Tuproq, suv va havo mikroflorasi.	8	Tuproqning resident va alloxton mikroflorasi. Suv mikroflorasi haqida umumiy tushuncha. Havo mikroflorasi haqida umumiy tushuncha.	2	Havo mikroflorasini tekshirish; Mikrob hujayrasi sonini hisoblash usullari.	6		
10	10-mavzu. Aerob va Anaerob jarayonlar.	14	Oksidlovchi bijg'ishlar. Sirkal kislotali bijg'ish. Limon kislotali bijg'ish. Limon kislotosi ishlab chiqarishning usullari. Kletchatka va yog'ochning aerob sharoitda parchalanishi.	2			Oqava suvlami mikroorganizml ar yordamida tozalash. Mini texnologik tizimlar.	12
11	11-mavzu. Infeksiya, ularning manbaalari va tarqalish yo'llari. <i>Salmonella</i> , <i>Clostridium</i> <i>botulinum</i> .	14	Kasallik qo'zg'atuvchi patogen mikroorganizmlar xususiyatlari. Infeksiya, ularning manbaalari va tarqalish yo'llari. Oziq-ovqat infeksiyalari.	2			Zamonaviy texnologiyalarni o'rghanish va taqqoslash.	12
12	12-mavzu. Sut, sut mahsulotlari va tuxum mikrobiologiyasi.	6	Sut va sut mahsulotlari mikrobiologiyasi. Yangi sog'ilgan sut mikroflorasi va saqlash jarayonida uning o'zgarishi. Bakteriotsid faza.	2	Sut va sut mahsulotlari mikroflorasini o'rghanish.	4		

13	13-mavzu. Go'sht va baliq mikrobiologiyasi.	4	Go'sht, kolbasalar va baliqlar mikroflorasi. Yaqinda ishllov berilib sovutilgan go'sht mikroflorasi.	2	Go'shtning yangiligini bakterioskopik usulda aniqlash.	2		
14	14- mavzu. Meva, sabzavot va konservalar mikrobiologiyasi.	2	Meva, sabzavot, bankali konservalar mikrobiologiyasi. Meva va sabzavotlarni tashish, saqlash va sotish jarayonida ularning buzilishi sabablari va turlari.	2				
15	15-mavzu. Don va don mahsulotlarining mikrobiologiyasi. Yog', moy mikroorganizmlari.	6	Don mikroflorasi. Yorma, un, non va makaron mahsulotlari mikrobiologiyasi. Yormada mikroorganizmlarning rivojlanishi sabablari.	2	Bug'doy mikroflorasini aniqlash	4		
16	16-mavzu. Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar mikrobiologiyasi	2	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar mikrobiologiyasi. Meva va sabzavot sharbatlarining mikrobiologiyasi. Kvas, vino va pivo mikrobiologiyasi.	2				
17	17-mavzu. Oziq-ovqatlardagi mikroorganizmlarni nazorat qilish	2	Oziq-ovqatlarni saqlashning salbiy va ijobiy jihatlari, tabiiy saqlashdan kimyeviy saqlashning o'ziga xos xususiyatlari, antibakterial saqlashning ta'sir qilish omillari va ta'sir qilish usullari,	2				
18	18-mavzu. Oziq-ovqat mahsulotlarini fizik usulda saqlash.	2	Yuqori haroratning ahamiyati, atmosferani boshqarish va muzlatish bilan mikroblar o'sishini to'xtatish. Issiqlik ishlloving turli turlarini farqlash.	2				
Jami		180	Jami	36	Jami	36	Jami	108

8.Talabalar bilimini baholash

№	Baholash turi	Topshiriqlar turi	Topshiriq soni	Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball	Jami
1	Joriy baholash	Mustaqil ish topshiriqlari	6	3	18
		Laboratoriya mashg'ulotlardagi ishtiroki	11	2	22
2	Oraliq baholash	Mustaqil ish topshiriqlari	2	4	8
		Yozma og'zaki	2	6	12
3	Yakuniy baholash	Yozma	1	40	40
4	Jami		22		100

Izoh: Mustaqil ish topshiriqlarini baholash GulDU Kengashining 11-sonli bayoni bilan tasdqlangan “Talabalar mustaqil ta'lmini tashkil qilish tartibi” asosida baholanadi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$UB=JN+ON+YaN$$

bu yerda: JN - joriy nazorat; ON - oraliq nazorat; YaN - yakuniy nazorat.

9.ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Zakirova M.R., Boboyev A.X. Oziq-ovqat mikrobiologiyasi. Darslik. - Toshkent: «IJOD-PRINT» MCHJ nashriyoti. 2019. - 272 b.
2. Mirxamidova P., Vaxobov A.X., Davronov Q., Tursunboyeva G.S. Mikrobiologiya va bioteknologiya asoslari. Darslik. - Toshkent: “ILM ZIYO” nashriyoti, 2014. - 336 b.
3. Thomas J. Montville, Karl R. Matthews, Kalmia E. Kneil. Second edition. Food microbiology: an Introduction. -2nd ed. Copyright 2008.-484 p.
4. Красникова Л.В., Гунькова П.И. Общая и пищевая микробиология: Учеб. пособие. Часть I. - СПб.: Университет ИТМО, 2016. 134 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. “O'zbekiston”, 2017 yil. -488 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T. “O'zbekiston”, 2017 yil.-48 b.
7. Xakimova Sh.I. Oziq-ovqat mikrobiologiyasi. O'quv qo'llanma - Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2005. - 304 b.
8. И. Рабинович Г.Ю., Сульман Э.М. Санитарно-микробиологический контроль объектов окружающей среды и пищевых продуктов с основами микробиологии. Учебное пособие, Тверь. 2005. 220 с.
9. Лысак В.В. Микробиология. Учебное пособие. Минск: БГУ, 2007.-426 с.
10. Davronov Q.D., Xo'jamshukurov N.A. Umumiy va texnik mikrobiologiya. O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston ensiklopediyasi. 2004. -279 b.

Axborot manbaalari

1. [www.ziyouchi](http://www.ziyouchi.com)
2. gulduportal.uz
3. www.pedagog.uz.

10. Akademik talablar

O'qituvchi va talaba o'rtaidiagi o'zaro munosabat samimiyl va beg'araz bo'lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o'quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi.